

Talaba yoshlarni komillikka erishtirishda ajdodlarimiz ma'naviy merosidan foydalanish.

Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchi (PhD) N.Bayto'raeva

Annotation Ushbu maqolada ma'naviy merosni qoldirgan allomalarimizning komil inson to'g'risidagi ta'limotlaridan namunalar keltirish asosida bugungi kunda qilinayotgan ishlarimizning mazmun va mohiyatini ochib berishga harakat qilingan. Bugungi axborot va globallashuv jarayonida keng tafakkur va falsafiy, siyosiy mushohada yurituvchi yoshlarni tarbiyalash dolzARB masala ekanligi maqolada alohida ta'kidlangan. Ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy, ilmiy, ma'rifiy merosi yoshlarimiz komil inson bo'lib etishishi uchun ibrat namunasi bo'lishi mumkinligi haqida.

Keywords. komil inson tarbiyasi, ma'naviy meros, ma'naviy omillar, o'tmish ajdodlarimiz, ustivor vazifalar, ilm-fan rivoji, uygonish davri falsafasda, ijtimoiy siyosiy bilimlar, axloqiy fazilatlar, mamlakat mustaqilligi, davlat va jamiyat, ma'naviy barkamollik, ta'lim tarbiya, insonning ruxiy dunyosi, yoshlarni ma'naviy olami.

O'rta Osiyoda komil inson tarbiyasiga bo'lgan e'tibor qadimdan ilmiy, falsafiy, amaliy masala bo'lib kelgan. «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni mazmun va mohiyati» mavzusidagi 2017 yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" Davlat dasturi va unda Ta'lim va fan sohasini rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni belgilab berdilar(1,7-b).

Mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'lnlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz»(2,22-b).

Barkamol shaxsni tarbiyalash g'oyasi ham milliy, ham umuminsoniy mazmun-mohiyatga ega bo'lib, insoniyatni ma'naviyat va ma'rifikatga, yuksak barkamollikka, ezgulikka olib boruvchi g'oyadir. SHU sababli barkamol shaxs va uni tarbiyalash muammosining echimlari qadimdan xalqimizning orzusi bo'lib kelgan.

YOshlarni komillikka erishishdagi omillarga alohida e'tibor bilan qaralgan. SHaxs kamolotining ilk bosqichi bolalik bo'lib, kattalardan o'rganish, o'qigan, eshitgan va rivoyat qahramonlaridan ibrat olish asosida bo'lsa, ulg'ayib borgan sari komillik manbayi ibrat va ilmga ko'chadi. Ilm ham aslida ajdodlar ibratidir. Ma'rifikatning muhim buyuk o'chog'i ilmdir. Ilmni shaxs kamolotining muhim bosqichi deb hisoblash kerak. SHuning uchun bo'lsa kerak, O'rta Osiyo uyg'onish davri falsafasida ilm, ma'rifikat va komil inson masalasi muhim o'rIN egallagan bo'lib, Abu Nasr Farobi, Abu Mansur Muhammad al-Motruziy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, YUsuf Xos Hojib, Mahmud az-Zamaxshariy va boshqa ko'plab allomalar milliy ma'naviyatimiz ilm-fan rivojiga buyuk hissalarini qo'shish bilan birga, ilm-ma'rifikatni targ'ibotchilari bo'lganlar. Uyg'onish davri boshlab bergen ilm, ma'rifikat va komil inson falsafiy g'oyasi keyingi asrlarda ham rivojlantirildi va davlat mustaqilligidan keyin esa davlat siyosatining ustivor vazifasi qilib belgilandi.



Jumladan, mutafakkir Abu Nasr Farobiy o'z asarlarida mazkur masalaga alohida e'tibor bilan qaragan. Uning «Baxt-saodatga erishuv haqida» risolasidagi quyidagi fikrlar diqkatga sazovordir, «... kamolotga bir kishining o'zi yolg'iz (birovning yoki ko'pchilikning yordamisiz) erishuvi mumkin emas. Har bir insonning tug'ma tabiatida va unga lozim bo'lган har qanday ish va harakat jarayonida boshqa bir inson yoki ko'pchilik bilan munosabatda bo'lish, o'zaro aloqa qilish hissiyoti bor, odamzod jinsida har qanday insonning ahvoli shuki, u har qanday kamolotga erishuvida boshqalarning ko'maklashuviga va ular bilan birlashishga muhtoj yoki majburdir».

Abu Nasr Farobiy inson jamoasining kelib chiqishi asosida tabiiy ejtiyoj yotishini ijtimoiy isbotlab berar ekan, ayni paytda komillikka intilish ham inson tabiatida mavjudligini ko'rsatadi: «Har bir inson tabiat bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishish uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirta olmaydi va ularga ega bo'lish uchun kishilar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. SHu sababli yashash uchun zarur bo'lган narsalarni bir-birlariga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvi ko'p hislatlarning birlashuvi orqali odamlar o'z tabiatini jihatidan intilgan etuklikka erishuvi mumkin»(4.27) deb yozadi. Abu Nasr Farobiy komillikka erishishning muhim omili sifatida jamoaga odamlarning birlashuvi, ya'ni ideal davlatni vujudga kelishini tushunadi. SHu bilan birga komillikka erishuvini ikkinchi muhim omili sifatida siyosiy ijtimoiy ilmlarning tug'ri, mukammal talqinidir deb hisoblaydi. Ijtimoiy-siyosiy ilmlarning maqsadi-kishilarga haqiqiy baxt-saodatni ko'rsatib berish uning yolg'on baxtidan farqni aniqlab berish va kishilarning erishtiruvchi vositalarini ko'rsatib berishdan iboratdir deb xisoblaydi.

Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" asarida fozil kishi modeli yaratilgan. Fozil kishiga qo'yiladigan talablar uning Ona Vatan uchun jonini ham ayamasligi xislatlari, sharqona nazokat, mehrga ega bo'lishlari haqidagi fikrlari barkamol shaxsni tarbiyalashdagi sifatlarning tarkib topishiga e'tibor bilan qaraganligining guvohi bo'lamic. Olim «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida», «Aql to'g'risidagi risola» asarlarida inson kamoloti to'g'risidagi ta'limotni ilgari suradi.

SHu o'rinda Abu Nasr Farobiyning axloqli kishi to'g'risidagi fikrini keltirishni joiz topdik. U o'n ikki tug'ma xislatni birlashtirgan kishi barkamol shaxs bo'la oladi, deb ta'kidlaydi. Ular:

- komil odamning barcha organlari mukammal taraqqiy etgan bo'lishi, bu bilan barcha ishlarni osonlik bilan amalga oshira olsin;

- barcha masalani tezda tushunib, uning ma'nosini anglay oladigan, so'zlovchining maqsadi tezda payqay oladigan bo'lsin;

- xotirasi o'tkir bo'lsin, ko'rgan-eshitgan narsalarini esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo'lsin;

- zehni juda o'tkir bo'lsin;

- so'zлari aniq bo'lishi, aytmoqchi bo'lган fikrlari ravon va ravshan bo'lishi;

- bilish va o'qishga muhabbat bo'lishi, bu bilan bilimni osonlik bilan o'zlashtira olsin;

- ovqatlanishda ochko'z bo'lmasin, tabiat qimor o'yinlarini o'ynashdan yiroq bo'lsin;

- haqiqatni to'g'ri aytadigan, yolg'onga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin;

- g'ururi va o'z vijdonini qadrlaydigan bo'lishi;

- dirham, dinor kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qaraydigan bo'lishi;

- o'z tabiatini bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchi bo'lishi;

- adolatli bo'lishni, qaysar bo'lmaslikni, qo'rmas, jasur bo'lish, qo'rqish va ojizlikni bilmaslik kabi sifatlar kishilarini barkamol shaxs bo'lishini ilmiy-falsafiy jihatdan asoslab beradi(5.280).

Ijtimoiy - siyosiy bilimlar deb - ta'kidlaydi Farobiy insonlarni haqiqiy baxt-saodatga olib boruvchi ongli harakatlarni, hulq odatlarni, tabiiy mayllarni, malakalarni, turmush-tarzlari, o'zaro munosabatlarni, yashashdan maqsadlarini tushunib olishga ko'maklashadi. Insonning yaxshi ahloqiy fazilatlarini, hulq-



odatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatishni va ana shu asnoda (asosda) komil insonning shakllantirishni ilmiy asoslab beradi.

Ijtimoiy - siyosiy bilimlar komil inson tarbiyasiga to'xtalar ekan, sosiologik ya'ni, jamiyat haqidagi hamda huquq falsafiy ilmga alohida urg'u beradi. Bu fanlarga bir butunlikni tashkil etuvchi ilm sifatida olib qaraydi.

Komil inson shaxsini tarbiyalashda yuqorida ta'kidlangan fanlar soxtakorlikdan qochish zarurligani ko'rsatadi. Ijtimoiy ilmnинг soxta bo'lishi ta'lim-tarbiyaga yomon ta'sir ko'rsatib, asosiy maqsadga erishish yo'liga to'siq bo'lishi jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ilmiy asoslab beradi.

Farobiy komil inson shaxsini tarbiyalashdagi asosiy omillarini ko'rsatib berar ekan, uni amalga oshirishning asosiy vositasi sifatida davlat birlashmasini ko'rsatadi.

Farobiy ilgari surgan falsafiy g'oyalar, komil inson shaxsi masalalardagi qarashlar qanchalik to'g'ri, aynan haqiqat ekanligini insoniyat tarixiy taraqqiyoti to'laligicha isbotlanmoqda. Jumladan, Farobiy davlat boshlig'ining katta siyosiy san'at va mustahkam chuqur bilimiga ko'p narsa bog'liq bo'lishini ko'rsatgan edi. Darhakiyat, XX asrning 80-yillardan keyin demokratik taraqqiyot yo'liga kirgan davlatlarning ko'pchiligida tenglik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik etishmay kelayotgan bir sharoitda yosh O'zbekiston davlat rahbari rahnamoligida ijtimoiy hayotning xamma sohalarida qisqa tarixiy davrda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritib, har tomonlama tarakqiy etib bormokda.

Farobiy jamiyatni baxt-saodatga erishishida hukmdorning rolini alohida ta'kidlaydi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda bugungi O'zbekiston xalqini komillik, ma'naviy barkamollik, farovon turmush tarzini yaratishlari uchun barcha shart-sharoitlar, ko'plab imkoniyatlarning berilishiga, albatta, birinchi Prizident I.A.Karimovning xizmati beqiyosdir.

Mamlakat mustaqilligidan keyingi yillarda ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash masalasida asrlarga tatigulik ishlar amalga oshirildi. Ilm-fan, ma'rifat bularning zamirida hosil bo'ladigan ma'naviyatga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu bir jihatdan ajodolarimizning ma'naviy merosini bardavomiyligi bo'lsa, ikkinchi jihatdan zamon va davr talabiga xosdir,

«Ayni vaqtda bugungi murakkab va shiddatli zamonda jahonda o'z o'rnini topishga intiladigan har qanday xalq va millat umumbashariy taraqqiyot yutuqlarini har tomonlama chuqur va puxta egallash shartligini barchamiz yaxshi tushunamiz», - deb yozadi I.A.Karimov. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy o'tgan asrning boshidayok «Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur», degan haqqoniyligi fikrlari bilan Turkiston axlining ongu shuurini uyg'otishga da'vat etgani bejiz emas, albatta, bu so'zlarning qanchalik xaqiqat ekanini bugungi yuksak tafakkur va texnologiyalar zamoni ham isbotlanmoqda. «CHindan ham, agarki hozirgi vaqtda dunyoviy ilm-fan va texnologayalarni chuqur o'zlashtirmasak, zamon bilan hamqadam bo'lib yurmasak, bizning jahon maydonida munosib o'rinnegallashimiz qiyin bo'ladi»(1.7).

Prezident SH.M.Mirziyoev aytganidek, bugungi kunda oldimizga qo'yilgan buyuk maqsadlarimizga, ezgu-niyatlarimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohatlarimiz, rejalarimizning samarali taqdiri-bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan milliy va umumbashariy yutuqlarni, ilm-fan texnologiyalarni o'zlashtirgan ma'naviy barkamol, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab etmoqdamiz. SHuning uchun kelajak poydevori bo'lgan barkamol, ma'naviy etuk avlod tarbiyasiga bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi omili sifatida karaliyotgani mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridan oq milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtarish, uning milliy ma'naviy va huquqiy zaminlarini mustahkamlash, zamon talabi bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish masalasiga alohida e'tibor berilib kelinayotgani bejiz



emas. CHunki, faqat ruhan pok, qalban ulg'aygan, iymon-etiqodli, ichki dunyosi, irodasi baquvvat, vijdoni uyg'oq, tashabbuskor, izlanuvchan, yangicha fikrlaydigan insongina bugungi juda murakkab iqgisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy muammolarni to'g'ri echimini topa oladi. Insonning ruhiy dunyosini to'g'ri tafakkurini izdan chiqarishga qaratilgan har kanday mafkuraviy, g'oyaviy va axborot xurujlarining ta'siriga qarshi tura oladigan, aqlan ziyrak, fikran teran, ma'naviy boy shaxsni tarbiyalashni oliy maqsad qilib olamiz. SHuning uchun ham fuqarolarimizni, ayniqsa, yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ma'naviy-ma'rifiy va ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishimiz, zamonaviy, ijtimoiy-siyosiy bilimlar bilan birga avlodlarimiz qoldirgan boyliklarni ibrat namunalari bilan uyg'unlashgan holda etkazib berishimiz yaxshi natijalarga olib boradi.

Xulosa qilib aytganda, asosida talabalarini ta'lim tarbiya jarayonida, mustaqillik yillarda amalga oshirilayotgan ishlarimiz komil insonni tarbiyalashimizdagi istiqbolli rejalarimiz, ajdodlarimizning komil insonni tarbiyalashdagi ma'naviy merosimizning bardavomiyligidir.

References:

1. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat - engilmas kuch -T.: Ma'naviyat, 2008.7-bet.
2. Mirziyoev SH. M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: «Uzbekistan», 2017. -22-6.
3. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son farmoni. www.aza.uz
4. Xayrullaev M, Uyg'onish davri va SHarq mutafakkirlari - T.: O'zbekiston, 1991. 27-bet.
5. X.A.To'raqulov, J.Xasanboev Alqarov I., Usmonov N.O'. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2009. -480b.

